

## O'ZBEKISTON TARIXI FANINI O'QITISHDA PEDAGOGIK IMPROVIZATSIYA: TEZKOR ROLLI BAHS VA KOGNITIV TRENAJYORLAR TEXNOLOGIYASI

*Andijon davlat pedagogika instituti*  
*Tarix kafedrası dotsenti*  
**Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna**  
*muhayyoergasheva162@mail.com*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada improvizatsiya asosida o'qitishning samarali metodlari, ularning zamonaviy ta'lim jarayonidagi o'rni, qo'llanish shakllari va amaliy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Pedagogik improvizatsiya talabaning ijodiy fikrlashini rivojlantiruvchi asosiy metodlardan biri sifatida qaraladi. Maqola davomida "tezkor rolli bahs", "noaniq muammoni hal qilish", "metaforik so'z o'yini", "improvizatsion ssenariy tuzish" kabi metodlar yoritilgan va adabiyotlar bilan asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** pedagogik improvizatsiya, metod, ijodkorlik, o'qitish texnologiyasi, tarixiylik, tezkor rolli bahs, jadidchilik, tarixiy tafakkur, improvizatsion trenajyor, empatiya, interfaol ta'lim.

### **Kirish**

Zamonaviy ta'limda o'quvchilarning bilimni faqat yodlash asosida emas, balki uni amaliyotda qo'llash va yangicha yondashuv orqali mustahkamlash zarurati ortmoqda. Shu sababli, **improvizatsiya asosida o'qitish metodlari** ta'lim sifatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Pedagogik improvizatsiya o'qituvchidan moslashuvchanlik, ijodkorlik va psixologik sezgirlikni talab etadi, talabalardan esa faol ishtirok va erkin fikrlashni rivojlantiradi. Bilim oluvchida mavjud bilim, malaka, ko'nikmaning uyg'unligi asosida ta'limning amaliyiy faoliyatga yondashuvi uning natijasini belgilab beruvchi omil hisoblanadi. Faol o'quvchi ishtirokidagi metodlar, xususan, o'zgalarga o'rgatish (learning by teaching) eng samarali usullardan biri ekanligi ilmiy isbotlangan.<sup>1</sup>

Improvizatsiyani 3 qismdan iborat modul sifatida taklif etiladi:

1. Bilish bosqichi (kuzatish, oldindan tayyorgarlik)
2. Hissiy-reaktiv bosqich (holatga moslashuv)
3. Qaror va pedagogik yechim bosqichi (didaktik natija)

Bugungi kunda O'zbekiston tarixi fani oliy ta'lim tizimida alohida o'ringa ega bo'lib, u nafaqat faktlar yig'indisi, balki ijtimoiy ong va milliy o'zlikni shakllantirishda

<sup>1</sup> Tojiboyev O. (2021). *Pedagogik texnologiyalar asoslari*. Toshkent: TDPU.

muhim vosita hisoblanadi. Biroq ko'plab darslar hamon ma'lumotlarni yodlashga asoslangan, monologik uslubda o'tmoqda. Bu esa talabalarni passiv tinglovchiga aylantiradi. Pedagogik tajriba shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston tarixi fanini o'qitishda norrativ — ya'ni hikoya asosidagi metodlar, improvizatsion suhbatlar, tarixiy voqealarning drammatizatsiyasi talabalarda yuqori darajadagi qiziqish va ishtirokni vujudga keltiradi.

Bu model O'zbekiston tarixi fanida talabalar bilan seminar yoki keys-analiz darslarida qo'llaniladi. Bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimida, xususan, tarix fanini o'qitishda pedagogik improvizatsiyaning o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Maqolada pedagogik improvizatsiyaning tarkibiy qismlari, tamoyillari hamda amaliyotda qo'llashga mo'ljallangan "Tezkor rolli bahs" va "Improvizatsion fikrlash trenajyorlari" metodlari ilmiy jihatdan asoslanib, ularning o'quvchilar tafakkuriga ta'siri yoritib berilgan. Shundan kelib chiqib zamonaviy ta'lim paradigmasi talabalardan nafaqat faktologik bilimlarni xotirada saqlashni, balki kutilmagan vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish, tanqidiy fikrlash va muloqotga kirishish ko'nikmalarini talab etadi. O'zbekiston tarixi fanini o'qitishda quruq yodlashga asoslangan an'anaviy yondashuvlar talabalarning fanga bo'lgan qiziqishini susaytirmoqda. Shu o'rinda, auditoriyada jonli muhit yaratuvchi **pedagogik improvizatsiya** o'qitishning eng samarali vositalaridan biriga aylanmoqda. Improvizatsiya — bu tayyorgarliksizlik emas, balki o'qituvchining yuqori kasbiy mahorati va moslashuvchanligi natijasida tug'iladigan ongli jarayondir.<sup>2</sup>

### Adabiyotlar tahlili.

Pedagogik improvizatsiya va muammoli ta'lim masalalari jahon va mahalliy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Amerikalik faylasuf va pedagog Jon Dyui o'zining "Tajriba va ta'lim" (Experience and Education, 1938) asarida ta'limni faqat o'tmish faktlari sifatida emas, balki talabaning bugungi tajribasi bilan bog'liq holda "harakat orqali o'rganish" (learning by doing) shaklida tashkil etishni ilgari suradi.<sup>3</sup> Zamonaviy tadqiqotchi R.K. Soyer (R.K. Sawyer) esa dars jarayonini "qat'iy ssenariylashtirilgan teatr" emas, balki "improvizatsion jazz musiqasi"ga o'xshatib, bunda o'qituvchi va talaba hamkorlikda yangi bilimlarni yaratishini ta'kidlaydi [3]. Mahalliy olimlardan R. Ishmuhamedovning ta'kidlashicha, bahsli interfaol metodlar demokratik va teng imkoniyatli sinf muhitini yaratib, talabalarga o'z ovozi eshittirish imkonini beradi.<sup>4</sup>

<sup>2</sup> Qurbonov Sh., Seytxalilov E. *Ta'lim tizimini boshqarish: muammo va yechimlar*. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 84-88.

<sup>3</sup> Dewey, J. *Experience and Education*. – New York: Macmillan, 1938. – P. 45-50.

<sup>4</sup> Ishmuhamedov R., Yuldashev M. *Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent: Nihol, 2013. – B. 142.

**Asosiy qism.**

Mazmunijihatdan pedagogik improvizatsiya murakkab tuzilmaga ega bo'lib, u o'zida quyidagi 4 ta asosiy komponentni mujassam etadi:

1. *Bilish-kommunikativ komponent* — ma'lumotni tezkor qabul qilish va jamoa bilan baham ko'rish.
2. *Hissiy-emotsional komponent* — vaziyatga mos ravishda hissiyotlarni boshqarish va hamdardlik (empatiya) uyg'otish.
3. *Ijodiy-kompozitsion komponent* — kutilmagan elementlardan mantiqiy butunlik (ssenariy) yaratish.
4. *Refleksiv-tahliliy komponent* — jarayon davomida va undan keyin o'z harakatlariga tanqidiy baho berish.

Amaliyotda ushbu elementlar *holatga moslashuv, tezkor yechim, refleksiv baholash va individuallashtirish* tamoyillari asosida ishlaydi. Texnik jihatdan improvizatsiyani amalga oshirish o'qituvchidan keng bilim doirasi, intellektual moslashuvchanlik, til va nutq ustaligi hamda muammoni zudlik bilan tahlil qilish qobiliyatini talab etadi.<sup>5</sup> Ushbu qoidalarga tayangan holda quyidagi aniq metodikalarni amaliyotga joriy etish tavsiya qilinadi:

**1. "Tezkor rolli bahs" metodi:** Bu o'quvchilarga (yoki talabalarga) ziddiyatli yoki bahsli vaziyatlar berilib, ular improvizatsiya asosida tayyorgarliksiz turli rollarni egallab, muammoni darsning o'zida hal qilishga yo'naltirilgan interfaol o'qitish usulidir. Bu metod talabalarda kommunikatsiya, empatiya va o'z pozitsiyasini dalillar bilan himoya qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

*Tarix fanida qo'llanishiga misol: "Jadidchilik harakati va an'anaviy ta'lim tizimi"*

**Vaziyat:** XX asr boshlarida O'zbekistonda jadid maktablari va eski uslubdagi maktablar o'rtasidagi qarama-qarshilik.

**Rollar:**

1. *Jadid o'qituvchisi* – dunyoviy bilimlar, texnika, yangi alifbo tarafdori.
2. *An'anaviy maktab mudarrisi* – diniy ta'lim va qadimiy qadriyatlarini himoya qiluvchi.
3. *Yosh talaba* – ikkala tizim orasida ikkilanayotgan, qaror qabul qilish arafasidagi yosh.
4. *Zamonaviy ziyoli* – modernizatsiyani targ'ib qiluvchi shaxs.
5. *Ota-ona* – farzandi kelajagi uchun eng xavfsiz va to'g'ri yo'lni qidiruvchi omma vakili.

<sup>5</sup> Johnstone, K. *Impro: Improvisation and the Theatre*. – Routledge, 1981. – P. 74-80.

**Jarayon:** O'qituvchi 5 daqiqalik kirish so'zi bilan tarixiy kontekstni tushuntiradi. Talabalar rollarga bo'linib, 2-3 daqiqa davomida o'z pozitsiyalarini himoya qiladilar. Shundan so'ng spontan (erkin) savol-javob, dalillar to'qnashuvi boshlanadi.

**Ta'siri:** Talabalarda tarixga subyektiv yondashuv paydo bo'ladi; ular tarixiy qahramonlarning motivatsiyasini his etadi (empatiya). Nutq madaniyati va qarama-qarshi fikrga hurmat shakllanadi.

## 2. Improvizatsion ssenariy tuzish metodi.

Talabalar kichik guruhlariga bo'linib, berilgan mavzu asosida ssenariy yaratadi va uni zudlik bilan sahnalashtiradi. Jon Dyui ta'kidlaganidek, bunday tajribaviy yondashuv orqali nazariy bilimlar amaliy malakaga aylanadi.<sup>6</sup> Masalan, jadidlarning teatr faoliyati yoki "Shuroi islom" va "Shuroi ulamo" o'rtasidagi to'qnashuvlarni sahnalashtirish tarixiy tafakkurni rivojlantirishda nihoyatda samaralidir.

## 3. Improvizatsion fikrlash trenajyorlari.

Ushbu texnologiya talabalarni erkin, kreativ va reflektiv fikrlashga yo'naltiruvchi mashqlar majmuasidir. "Trenajyor" atamasi bu o'rinda murakkab fikrlash jarayonlarini uzluksiz mashq qildirish vositasi sifatida talqin etiladi. Talaba tasodifiy elementlardan (so'z, obraz, harakat) foydalanib, tarixiy yoki pedagogik g'oyani ishlab chiqadi. Ong ostidagi ma'lumotlar favqulodda vaziyatda yuzaga chiqadi. Bu metod miyada neyron aloqalarning tezlashishiga olib kelib, qotib qolgan stereotiplarni buzadi va talabaning intellektual mustaqilligini oshiradi.<sup>7</sup> Tadqiqot va adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, "Tezkor rolli bahs" va "Improvizatsion trenajyorlar" — bu talabalarning fikrlash, pozitsiya egallash, nutqni mantiqiy qurish va ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi kuchli ta'limiy vositalardir. Bu metodlar improvizatsiya asosida qo'llanganda, O'zbekiston tarixi darslarida jonlilik, qiziqish va chuqur emotsional-tahliliy muhit yuzaga keladi. O'qituvchi auditoriyani shunchaki boshqarmaydi, balki talabalar bilan birgalikda jonli tarixiy voqelikning bevosita ishtirokchisiga aylanadi.

Metodning asosiy xususiyatlari:<sup>8</sup>

Xususiyati	Tavsifi
<b>Improvizatsiyaga asoslanadi</b>	Fikr oldindan rejalashtirilmagan, ammo mavzu bilan bog'liq javoblar shakllanadi
Tenajyor orqali tafakkur tezligini oshiradi	Fikrlarni cheklovsiz, erkin izhor qilish orqali "fikr oqimi" faollashadi va maxsus mashqlar, topshiriqlar, o'yinlar orqali mashq qilinadi.

<sup>6</sup> Dewey, J. *Experience and Education*. – New York: Macmillan, 1938. – P. 45-50.

<sup>7</sup> Vygotsky, L. S. *Imagination and Creativity in Childhood*. – Journal of Russian and East European Psychology, 42(1), 2004. – P. 7-97.

<sup>8</sup> Dewey J. (1938). *Experience and Education*. New York: Macmillan.

Refleksiya va tahlilni rag'batlantiradi	Har qanday g'oya yoki so'z dars mavzusi bilan bog'lanishi talab etiladi. Shuningdek o'z g'oyasini asoslash va boshqa g'oyalarga munosabat bildirish zarurati tug'iladi
Reflektivlikni va Ijodkorlikni oshiradi	Talaba o'z fikrini, ichki qarashini anglab, uni ifodalaydi hamda Fikr, obraz, voqea yoki g'oya yaratish talab qilinadi

### Metodni qo'llash bo'yicha misollar va amaliy mashqlar:

1. So'zlardan g'oya ishlab chiqish (klassik mashq):

**Topshiriq:** "Birinchi bo'lib xayolga kelgan uchta so'zni yozing. Ular asosida dars mavzusiga oid yangi g'oya yarating."

**Misol:**

So'zlar: "Ko'zgu", "Imom", "Yo'l"

Dars mavzusi: "Islom madaniyatining o'rta asrlar taraqqiyotiga ta'siri"

**G'oya:** "Islom ilmi – o'z davrining ko'zgusi bo'lib, xalqlarni ilm yo'lga boshlagan imomlar orqali yoyilgan."

Bu mashq orqali talabada **metaforik fikrlash, kontekstni bog'lay olish, kreativ kompozitsiya** ko'nikmalari rivojlanadi.

2. Cheklangan vaqt ichida improvizatsiya:

**Topshiriq:** "Mavzuga oid istalgan 5 ta atama ichidan 2 tasini tanlab, 60 soniyada mini-sahna improvizatsiya qiling."

**Misol mavzu:** "Jadidchilik harakati"

**Atamalar:** "Maktab", "Oltin devor", "Til o'rganish", "Behbudiy", "Yopiq eshik"

**Guruh ssenariysi:** Behbudiy yopiq eshiklarni sindirib, til o'rganish orqali maktabga kirib kelayotgan yoshlar haqida sahna.

Bu mashq **tezkor fikrlash, mavzuni kontekstda tushunish va jamoaviy ijodkorlikni** oshiradi.

3. G'oya-chizgi bog'lamasi (vizual trenajyor):

**Topshiriq:** "Mavzuni ifodalovchi tasodifiy rasmni tanlang va unga asoslanib darsning yangi g'oyasini ishlab chiqing."

**Misol:** Rasmda eski qulf va kalit.

**Mavzu:** "XIX asr oxirida islohotlar harakati"

**G'oya:** "Islohotlar – xalq ongini ochuvchi kalitlar bo'lib, mustamlaka qulfini ochishga urindi."

Bu usul **vizual tafakkur, majoziy ifoda va mavhum fikrlashni** rivojlantiradi.

**Mashq misoli va tahlili:**

**Topshiriq:** “Birinci bo‘lib xayolga kelgan uchta so‘zni yozing (masalan: g‘isht, qush, vaqt). Endi shu so‘zlardan foydalangan holda bugungi dars mavzusi bilan bog‘liq yangi g‘oyani ishlab chiqing.”

Tahlil:

Agar dars mavzusi, masalan, “**Temuriylar davrida shaharsozlik**” bo‘lsa:

**G‘isht** – Temuriylar arxitekturasi, masjidlar va madrasalardagi g‘isht ishlari

**Qush** – Sharq me‘morchiligidagi bezaklar, gumbazlar, baland minoralar

**Vaqt** – Davrning tarixiy bosqichi, vaqt o‘tishi bilan me‘moriy uslublarning o‘zgarishi

Bu asosda talaba quyidagi ijodiy g‘oyani ilgari suradi:

“Temuriylar arxitekturasi – bu g‘ishtda aks etgan vaqt va parvozga chog‘langan qush singari orzular ifodasi.”

Natija:

Talaba mavzuni nafaqat faktlar orqali, balki ramziy, estetik va reflektiv jihatdan tushuna boshlaydi.

Aqliy moslashuvchanlik, nutqni boyitish, obrazli fikrlash rivojlanadi.

**Qo‘llash shakllari:**

Trenajyor turi	Tavsifi
Tasodifiy so‘zlar asosida bog‘lanish	Yuqoridagi kabi topshiriqlar
Metafora asosida fikrlash	“Dars mavzusini bitta hayvon sifatida tasvirlang” (masalan, "Ijtimoiy inqilob — bu o‘z uyasini yangilayotgan asalari")
Imkonli ssenariy yaratish	“Agar bu voqea bugungi zamonda sodir bo‘lganida nima bo‘lardi?”
G‘oya assotsiatsiyasi	Talabalar bir so‘z aytadi, boshqalar navbat bilan unga bog‘liq tushunchalarni keltiradi va ular asosida fikr yuritadi

**Improvizatsion trenajyorlarning ta‘limdagi o‘rni:**

O‘quv natijasi	Izohi
Kreativ tafakkur	Erkin, original fikrlar orqali mavzuni yangi burchakdan yoritish
Reflektivlik	O‘z fikri, hissiyoti va anglamalarini dars bilan bog‘lay olish
Analitik fikrlash	Tasodifiy fikrni dars mazmuniga tahliliy tarzda moslashtirish
Nutq va ifoda ko‘nikmasi	Til orqali ijodiy g‘oyani ifodalash, analogiyalar qurish

## Afzalliklari:

Afzallik	Ta'siri
Ijodiy tafakkur rivoji	Talaba o'z fikrini yangi shakllarda ifodalashga o'rganadi
Mavzuga yangicha yondashuv	Oddiy dars mavzulari yangi nur ostida ko'rinadi
Muloqot ko'nikmasi	Fikrni asoslash, tushuntirish, munozara qilish odati paydo bo'ladi
Psixologik erkinlik	"Xato qilishdan qo'rqmaslik" muhiti yaratiladi

**Improvizatsion fikrlash trenajyorlari** – bu talabalarni **ijodiylik, refleksiya, tezkorlik, va mazmun bilan bog'lay olish** salohiyatiga ega bo'lgan mustahkam fikrlovchi shaxslarga aylantirishda muhim vositadir. Bu metodni darslarga qo'shish orqali o'quv jarayoni nafaqat samarali, balki chinakamiga zavqli va ma'noli bo'ladi. Shuningdek bu o'quv jarayonida talabani o'z fikri bilan ishlashga, tasodifiy g'oyani ma'no anglatishga va uni mavzu bilan bog'lay olishga o'rgatuvchi kuchli vositadir. Bu metod bugungi ta'limda **standart fikrlashdan chiqish, ijtimoiy moslashuv, va shaxsiy ongni anglash** kabi yuksak kompetensiyalarni shakllantirishda juda foydalidir.<sup>9</sup>

#### Improvizatsion ssenariy tuzish metodi sifatida taqdim etiladi.

Improvizatsion ssenariy tuzish metodi — bu talabalarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga yo'naltirilgan interaktiv o'quv uslubidir. Ushbu metodda talabalar kichik guruhlariga bo'linadi, ularga muayyan mavzu beriladi va ular shu asosida o'zlarining ssenariylarini yaratib, uni sahna ko'rinishida namoyish qiladilar. Muhimi, ssenariy tayyorlashda an'anaviy yondashuv emas, balki improvizatsiya, ya'ni real vaqtning o'zida rollarni ijro etish, dialog va voqealar ketma-ketligini ijodiy shakllantirish ustuvor bo'ladi.

Metodning pedagogik ahamiyati:

Talabalarda **tarixiy tafakkur, kritik tahlil, jamoaviy ishlash, nutq madaniyati va ijodiy yondashuv** ko'nikmalarini shakllantiradi.

Tarixiy voqealarni sahnalashtirish orqali ularning **sabab-oqibat bog'liqligini** chuqurroq anglash imkonini beradi.

Bilimlarni **mustahkamlash, amaliy qo'llash, shuningdek, ta'limiy motivatsiyani** oshirishda samarali hisoblanadi.

Texnologiyaning o'zbekiston tarixi fani misolidagi qo'llanish usuli.

<sup>9</sup> Norkulova D. (2020). *Ijodiy ta'lim metodikasi*. Toshkent: Fan nashriyoti.

Mavzu: “O‘zbekistonda jadidchilik harakati”

Bosqichlar:

### 1. Tayyorlov bosqichi:

O‘qituvchi mavzuga oid asosiy tarixiy faktlar, shaxslar, ijtimoiy-siyosiy sharoit haqida qisqacha kirish qiladi.

Talabalar kichik guruhlariga bo‘linadi (3–5 kishilik).

### 2. Ssenariy tuzish va rolda ishlash:

Har bir guruh quyidagi tarixiy obrazlardan birini tanlaydi:

Jadidchilik yetakchilari (Abdulla Avloniy, Munavvar Qori, Mahmudxo‘ja Behbudiy), eski usul tarafdorlari, mustamlaka ma’murlari, oddiy xalq vakillari (dehqon, ustoz, talabalar).

Improvizatsion sahna quyidagi holatlardan biri asosida bo‘lishi mumkin:

Jadid maktabining ochilish marosimi

Eski maktab bilan yangi uslubdagi maktab o‘rtasidagi bahs

Jadid gazetasining nashrga tayyorlanishi

Jadid arbobining hibsga olinishi yoki so‘roq qilinishi

### 3. Sahnalashtirish va tahlil:

Har bir guruh sahnasini namoyish qiladi.

O‘qituvchi va talabalar ishtirokida sahnadagi tarixiy haqiqat, xarakterlar asoslanganligi, dramatik qurilish va improvizatsion yondashuv tahlil qilinadi.

Natija:

Bu usul orqali talabalar:

**Jadidchilik g‘oyalarini** chuqur anglaydi.

Tarixiy manbalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

O‘z fikrini ifodalash va omma oldida chiqish qilish malakasini mustahkamlaydi.

### Noaniq muammoni hal qilish metodi

Noaniq muammoni hal qilish (inglizcha: *ill-defined problem solving*) metodi – bu o‘quvchilar (yoki talabalar)ga aniq javobi yo‘q yoki turlicha yechimlarga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan savollar, topshiriqlar yoki muammolarni yechish vazifasi yuklatiladigan uslubdir. Bu metod odatda **improvizatsiya, erkin fikrlash, tanqidiy tahlil** va **gipotetik (taxminiy) yondashuv** asosida bajariladi.

### Metodning asosiy jihatlari:

Jihatlari	Tavsifi
<b>Muammo noaniqligi</b>	Berilgan topshiriqda aniq yechim yo‘q yoki bir nechta mantiqiy va ijodiy yechimlar bo‘lishi mumkin.
<b>Talabada ijodiy fikrlashni rag‘batlantiradi</b>	Talaba erkin tarzda voqeani tahlil qiladi, yangi nuqtai nazardan baholaydi.
<b>Tarixiy tafakkurni chuqurlashtiradi</b>	Tarixdagi voqealar zaminidagi sabablar va oqibatlarni qayta tahlil qilishga undaydi.
<b>Bahs-munozara yaratadi</b>	Talabalar bir-birining fikriga qarshi dalil keltirib, o‘z nuqtai nazarini asoslaydi.

**Xulosa**

Xalqaro amaliyotda pedagogik improvizatsiya AQSh, Kanada, Germaniya, Yaponiya kabi mamlakatlarda chuqur o'rganilgan. AQShda J. Brookfieldning "critical incident" metodikasi mavjud. Germaniyada "Lehrerimprovisation" tushunchasi pedagogik teatr texnikalari bilan birga qo'llaniladi. Yaponiyada esa improvizatsiya ko'proq estetikaga asoslanadi. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, pedagogik improvizatsiya nafaqat metod, balki o'qituvchi kompetensiyasining ajralmas qismidir. Improvizatsiya asosidagi metodlar zamonaviy ta'lim tizimining ijodiy va innovatsion rivojlanishini ta'minlaydi. Ushbu metodlar talabaning individual fikrini hurmat qilish, mustaqil qaror qabul qilish, jamoada ishlash va og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. O'qituvchi uchun esa bu yondashuv darsni tirik, faol va o'quvchi markazli qilish imkonini beradi. Shu asoslarga tayangan holda ta'kidlash joizki pedagogik improvizatsiya — bu o'qituvchining yuqori didaktik madaniyatini aks ettiruvchi faoliyat shaklidir. U o'quv jarayonining jonlanishiga, talabalar bilan bevosita va samimiy muloqotga, shaxsga yo'naltirilgan ta'limga xizmat qiladi. Shu boisdan, pedagogik improvizatsiyaning nazariy asoslarini chuqur o'rganish va uni zamonaviy ta'lim amaliyotiga integratsiyalash — ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omilidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. G'anijonovna, Ergasheva Muhayyo. "The Issue of Ending Women's Illiteracy in Educational Reforms of Uzbekistan in the Russian Colonial Period." *JournalNX* 8.11: 338-343.
2. Alimova, M. Sh. "PUBLIC CONTROL IN THE BODIES OF STATE POWER AND LOCAL SELF-GOVERNMENT." *The Way of Science* (2014): 103.
2. Эргашева, Мухайё Ганижонова. "Актуальные проблемы ликвидации неграмотности среди женщин в Узбекистане в 1920-х гг." *Universum: общественные науки* 7-8 (67) (2020): 7-10.
3. Ergasheva, M. G., and Mokhizar Ergasheva. "MEANING OF EDUCATION MANAGEMENT AND EVOLUTION OF MANAGEMENT CONCEPTS IN EDUCATION." *Универсальная индексная библиотека Евразийского журнала академических исследований* 2.5 (2022): 966-973.
4. Эргашева, Мухайё. "Отношение правительства России к национальной системе образования по вопросу ликвидации женской неграмотности в Туркестанском крае." *Общество и инновации* 2.7/S (2021): 11-16.
5. Ergasheva, Muhayyo Ganijonovna. "The Issue of Ending the Illiteracy of Women and Girls in Turkestan is in the Views of the Jadids." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.11: 714-717.
6. G'anijonovna, Ergasheva Muhayyo. "The Issue of Ending Women's Illiteracy in Educational Reforms of Uzbekistan in the Russian Colonial Period." *JournalNX* 8.11: 338-343.